

**O'zbekiston Respublikasi. Farg'ona davlat universiteti tayanch  
doktoranti L.M.Saydaliyeva.**

**Republic of Uzbekistan, Fergana State University L.M.Saydaliyeva 2nd  
year doctoral student.**

**SAKRAL GEOGRAFIYA VA TURIZM  
SACRAL GEOGRAPHY AND TOURISM**

**Anatatsiya:** Maqolada sakral geografiya tushunchasi, uning mohiyati va diniy turizm bilan bog'liq jihatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Sakral hudud, sakral geografiya, madaniy landshaft, muqaddas qadamjolar, diniy turizm, ziyorat turizmi.

**Abstract:** The article discusses the concept of sacred geography, its essence and aspects related to religious tourism.

**Keywords:** Sacred territory, sacred geography, cultural landscape, sacred sites, religious tourism, pilgrimage tourism.

**Аннотация:** В статье раскрыто понятие сакральной географии, ее сущность и аспекты, связанные с религиозным туризмом.

**Ключевые слова:** Священная территория, сакральная география, культурный ландшафт, святые места, религиозный туризм, паломнический туризм.

**Kirish:** Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida turizmning rivojlanib borishi va uni turizm idustryasiga aylanishi minglab yillardan buyon davom etib kelayotgan diniy ob'yektlarga qilinadigan ziyorat va diniy turizmi bilan bevosita bog'liqdir.

Muqaddas qadamjolar - sakral hududlar qadimgi etnoslarning turmush tarzi, urf odatlari, diniy etiqodlarining asosiy markazi sifatida ko'plab makoniy hududlarga egadir.

Ularning geografik joylashishining tabiiy va madaniy tarixiy diniy ob'yektlarning hududiy jihatlari ochib beradi.

**Asosiy qism.** Sakral geografiya tushunchasi geografiyaning muhim tushunchasi sifatida muqaddas qadamjolar, tabiiy, diniy, tarixiy madaniy ob'yektlarni birlashtiruvchi, ularni muqaddaslashtiruvchi kategoriya sifatida yuzaga keldi. Shunga ko'ra sacral geografiya diniy turizmning sinonimi sifatida uning ijtimoiy iqtisodiy, diniy funksiyalarni bajaruvchi makoniy tushuncha hisoblanadi.

O'tgan asrning 90-yillarida sakral geografiya tushunchasi geografiyaning diniy ziyorat turizm bilan bog'lovchi ijtimoiy-geografik tushuncha sifatida namoyon bo'ldi. O.Shabliy (1993) "Sakral geografiya" atamasini diniy ziyoratlarning geografikligi deb fikr bildirdi. Aksariyat rus olimlari (N.Zametina, I.Metin) Sakral geografiyani gumanitar geografiya sifatida e'tirof etdilar.

Sakral geografiya tushunchasini Yu.Zavgarovniy (2013) muqaddas hududlarni har xil tashkiliy tuzilmalari sakral toposlar sifatida tushuntirib ularni yer va osmon o'rtasidagi diniy-falsafiy an'analarni rivojlantiruvchi makon sifatida e'tirof etadi. O.Lavrenova (2003) sacral yoki diniy mifologik geografiyani madaniy landshaftlardagi muqaddas geografik obyektlarni arxitiplarini o'rganuvchi yo'nalish sifatida e'tirof etadi.

Sakral geografiya ijtimoiy-madaniy yo'nalishdagi muqaddas hududlar, qadamjolar tabiiy, tarixiy, diniy, sacral obyektlarni o'ziga birlashtiruvchi funksiyalarni bajaruvchi fan sifatida rivojlanib bormoqda.

Bizning fikrimizga ko'ra sakral geografiya sakral hududlarni ya'ni landshaftlarni hududiy joylanishi, ularni tabiiy va ijtimoiy muhit bilan bog'liligi haqidagi ma'lumotlarni o'ziga to'playdi. Sakral hududlar geografik makonga ega. Ularning shakllanishi, muqaddas qadamjolarga aylanishi esa turli xil etnoslarning yashash hududlari, urf-odatlar, diniy qarashlari, etiqodlari bilan bog'liqdir.

Sakral geografiya-turli xil sakral obyektlarning funksiyalari, etnoslarning ijtimoiy faoliyatlarini ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ham makoniy tizimlashtiradi. Shunga ko'ra sakral geografiyaning predmeti sakral hududlar hisoblanadi.

Diniy turizm-bu ziyorat turizmining diniy urf-odatlar, etiqodlar bilan bog‘liq bo‘lgan muqaddas joylar, ziyoratgohlar, diniy obyektlarni ziyorat qilish, diniy amallarni bajarish, ruhiy poklanish uchun qilingan safardir. Ziyorat turizmi uch xil turda ziyorat, diniy ekskursiya, maxsus tur sifatida amalga oshiriladi.

A.Xudoyorovning (2021) fikriga ko‘ra ziyorat turizmi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, ulug‘ ajdodlarimizga ehtirom ko‘rsatish ularning o‘tmishidagi hayoti va yaratgan madaniy va dunyoviy marosimlarda qatnashish maqsadida amalga oshiriladigan safarlarni o‘z ichiga oladi.

Respublikamizda ziyorat va diniy turizni rivojlantirish ichki va tashqi turlari uchun xalqimizga yetarli shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining “ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021 yil 24-fevraldagi 100-sonli qarori Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021 yil 9-fevraldagi PF.6165-son Farmoni qabul qilindi va unga ko‘ra moddiy, madaniy, diniy me‘ros obyektlarini ichki turizmga foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha bir qator ko‘rsatmalar berildi.

Bugungi kunda xalqimizning emin - erkin ziyoratlarni amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Xalqimiz qadimdan muqaddas mozorlarni ziyorat qilish, undan ruhiy va ma‘naviy ozuqa olish, orzu niyatlarini ijobat bo‘lishini niyat qilib duolar qilishga odatlanganlar.

O‘zbekistonda islom dini va madaniyatiga oid ko‘plab ziyoratgohlar, buddizm yodgorliklari mavjud. Bunday obyektlarga ziyorat turizmini tashkil etish turizm infratuzilmasini rivojlantirish transport xizmati ko‘rsatish, mehmonxonalar, ovqatlanish va dam olish maskanlarini tashkil etish, tibbiy xizmat ko‘rsatish, savdo shahobchalarini qurish, muqaddas qadamjolarining sanitariya-gigienik sharoitini yaxshilash kabi tadbirlarni majmualari amalga oshirishni talab etiladi.

**Xulosa.** Sakral geografiya va diniy turizm tushunchalari muqaddas qadamjolar ziyorat obyektlari, ularning hududiy joylashuvi, ijtimoiy

funksiyalarining o‘zaro mujassamlashuvi haqidagi ilmiy qarashlardir. Har qanday sakral obyekt kelib chiqishi va funksiyasiga ko‘ra tabiiy, ijtimoiy, tarixiy-madaniy, diniy turlarga bo‘linib ular alohida yoki guruhlar tashkil etib, hududiy joylanishi mumkin. Shunga ko‘ra har birsakral obektlar diniy va ziyorat turizmi obyekt sifatida e’tirof etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 09.02.2021 y PF-6165 son Farmoni.
2. Завгородний Ю Сакральная география И феномен Паломничество: Тайное или явное? Электронный портал .Режим доступа [http:// turellgi ovs.com.va](http://turellgi.ovs.com.va).- дата доступа 28.09.2013
3. Лавренова О. Культурный ландшафт от земли к космосу. Ноосферная концепция В.И.Вернадского И понятие культурного ландшафта биосфера Электронный научный журнал.2003.N2 Режим доступа [http:// www \(hst.ru|biosphere103-21](http://www(hst.ru|biosphere103-21)
4. Худойоров А. О‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya Toshkent: 000 complex
5. Шаблий О.И Сакральная география: Становление и проблемы развития | О.И.Шаблий, А.И.Висьтак Проблемы Территориальной организации общества: тезисы докл науч конф.-Пермь. 1993-С27-28
6. Saydaliyeva L. M. FORMATION OF MEDICAL GEOGRAPHICAL ENVIRONMENT IN FERGANA REGION //Ethiopian International Journal of
- 7.Saydaliyeva, L. M. "FORMATION OF MEDICAL GEOGRAPHICAL ENVIRONMENT IN FERGANA REGION." *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research* 10.11 (2023): 366-369.